

PEDAGOGLIK KASBINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI

*FarDU Pedagogika yo'nalishi 1-kurs
Najmiddinova Saodat Abduvohid qizi*

Annatsiya: Mazkur maqolada, o'qituvchi faoliyatining 4 asosi, pedagogic faoliyat, pedagogik mahorat, o'qituvchining pedagogik qobiliyatlari hamda pedagogning shaxsiy va kasbiy sifatlari haqida aytib o'tilgan. Shuningdek, pedagoglik kasbini rivojlantirishda ustoz-shogird an'analari to'g'risida keltirib o'tilgan.

Аннотация: В данной статье описаны 4 принципа деятельности учителя, педагогическая деятельность, педагогическое мастерство, педагогические способности учителя, а также личностно-профессиональные качества учителя. Также упоминается о традиции учитель-ученик в развитии педагогической профессии.

Abstract: This article describes the 4 principles of teacher activity, pedagogical activity, pedagogical skill, teacher's pedagogical abilities, and personal and professional qualities of a teacher. It is also mentioned about the tradition of teacher-student in the development of the pedagogic profession.

Kirish so'zlar: avtoritar qobiliyat, pedagogik mahorat, pedagogik relaksiya, gnostik qobiliyat, kasbiy qiyofa, shayx, murshid, pir, rukn, ma'naviy yordam, pedagogik takt, component, perseptiv qobiliyat, moddiy yordam.

Ключевые слова: авторитарная способность, педагогическое мастерство, педагогическая расслабленность, гностическая способность, профессиональный имидж, шейх, мушид, пир, колонна, духовная поддержка, педагогический такт, компонент, проницательная способность, материальное обеспечение.

Key words: authoritarian ability, pedagogical skill, pedagogical relaxation, gnostic ability, professional image, sheikh, murshid, pir, column, spiritual support, pedagogical tact, component, perceptive ability, material support.

Pedagogic faoliyat—yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob beradigan, bolalarga ta'lim-tarbiya berishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. Maktab o'qituvchilarining faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan. O'qituvchi faoliyatining quyidagi 4 asosi mavjud:

1. Ta'lim berish.
2. Tarbiya berish.
3. Insoniy sifatlarni shakllantirish.
4. Baholash.

Pedagogik mahorat—bu o‘quv jarayonining barcha shakllarini eng maqbul va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo‘naltirish, o‘quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish, qobiliyatni rivojlantirishni, ularda jamiyat uchun zarur bo‘lgan faoliyatga moyillik uyg‘otishdir. ...*Yomon o‘qituvchi haqiqatni aytib qo‘ya qoladi, yaxshi o‘qituvchi esa haqiqatni topishga o‘rgatadi. Pedagogik mahoratning quyidagi tarkibiy qismlari mavjud:*

1. Pedagogik odob.
2. Pedagogik bilimdonlik.
3. Pedagogik relaksiya.
4. Bilimdonlik, pedagogik qobiliyat.
5. Pedagogik muloqot madaniyati.
6. Pedagogik madaniyat.
7. Kommunikativ ta’sir ko‘rsatish.
8. Pedagogik ijodkorlik.
9. Pedagogik texnika.
10. Pedagogik takt.
11. Pedagogik tajriba.
12. Nutq texnikasi.

Pedagogic mahoratni egallash vositalariga esa quyidagilar kiradi:

1. Tajribali pedagoglarning tajribalarini o‘qib-o‘rganish, darslarida qatnashish.
2. Doimiy ravishda ilmiy anjumanlarda ishtirok etib borishi.
3. O‘qituvchi—xodimlarni qayta tayyorlash v amalaka oshirish institutlarni malakasini oshirish.
4. Xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta’lim muassasalarida malaka oshirish.

Qobiliyat—shaxsning individual-psixologik xususiyati bo‘lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish subyektiv shart-sharoitini ifodalovchi individual psixik sifatlar yig‘indisidir. *Pedagogik qobiliyat*—bu pedagogning pedagogik faoliyatni boshqara olish imkoniyatini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug‘ullana olishini, shuningdek, pedagogik jarayonlarni tashkil etish borasidagi xususiyatlarining komponentlaridir. O‘qituvchining pedagogic qobiliyatlariga quyidagilar kiradi:

1. Didaktik qobiliyat (tushuntira olish).
2. Akademik qobiliyat (bilish).
3. Perseptiv qobiliyatlar (kuzatuvchanlik).
4. Nutq qobiliyati.
5. Tashkilotchilik qobiliyati.
6. Avtoritar qobiliyat (obro‘ orttira olish).
7. Kommunikativ qobiliyat.
8. Pedagogic hayol qobiliyati (kelajakni ko‘ra bilish).

9. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati.
10. E'tiqod, odob, fuqarolik burchini anglash.
11. Gnostic qobiliyat (anglash).
12. O'qituvchi odobi.
13. O'qituvchining o'z hissiy (psixik) holatini boshqarish qobiliyati.

Pedagogning kasbiy sifatlariga: tajriba, malaka, bilim; shaxsiy sifatlariga: mehribonlik, adolatlik, samimiylik, talabchanlik kabilar kiradi.

Shaxs kamolotida ta'lim va tarbiya birligini ta'minlashda ustoz va shogird munosabatlari hal qiluvchi omildir. Bu masalaga, ayniqsa, sharqda juda katta e'tibor berilgan. Musulmon olamida mavjud an'anaga ko'ra, ustoz shogirdni qabul qilgan birinchi kundan boshlab, uning ma'naviy javobgarligini o'z bo'yniga olgan. Ustoz shogirdga faqat bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki u shogirdiga keng ma'nodagi tarbiyani ham beradi. Ustoz shogirdining ham axloqiy, ham kasbiy qiyofasini shakllantiradi.

Usta o'tmishda hunarmandlarning eng bilimdoni hisoblangan. Chunki, u madrasada tahsil olgan bo'lib, adabiyot, tarix, musiqa, matematika, kimyo fanlarini yaxshi bilgan. U shogirdlikka bolalarni 7-8 yoshdan olgan. O'qish-o'rganish 7-12 yillar atrofida bo'lgan. Ustozi shogirdlari bilan kunduzi ishlab, kechqurun esa ustoz rahbarligida shogirdlari savod chiqarishgan. Shogirdlar o'z ustozlaridan geometriya va kimyoni ham o'rganganlar. Shogirdning qo'lidan mustaqil ish kelgandan keyingina ustalar uning ishlarini muhokama qilishib, so'ngra usta nomini berganlar.

Xullas, kasbning ajdoddan-avlodga meros qolishi va o'tishi an'ana hisoblangan. Ustoz shogirdga qattiqqo'l va talabchan bo'lgan. Chunki, har bir hunarni o'ta nozik did va sabr-toqat bilangina o'rganish mumkin bo'lgan. Ustozlar shogirdlari uchun maxsus odob talablarini ishlab chiqqanlar. Masalan, ular shogirdan pokizalikni, ish vaqtida chalg'imaslikni, egri va noma'qul ishlarga yaqin yo'lamaslikni, ustoz ruxsatisiz biror ishga qo'l urmaslikni qat'iy talab qilganlar.

Islom madaniyati va tasavvuf ilmining murshidi komillardan biri. *Shayx Xovandiy Tohurning "Risolai dah shart"* ("o'nta shart haqida risola") nomli asarida komil inson tarbiyasi va uning tafakkur rivoji, ustoz va shogird munosabatlari haqida fikr yuritilib, shogirdlarga qo'llanma sifatida 10 ta shartlarni bayon qilgan. Bunga quyidagi ba'zi misollarni aytish mumkin:

Birinchi shart: yaxshilik va yomonlikdan, ne'mat va zahmatdan yetgan har bir narsani Haqdan deb bilish, hech kimdan ranjimaslik, har bir mavjudodni tasarruf qiluvchi Allohdir deb bilish.

Ikkinchi shartda esa, quyidagi fikr keltiriladi: "Alloh do'stlariga muhabbat qo'yish shu darajadagi, ularni o'zidan ham yaxshiroq ko'rish. Bilginki, ularsiz hech kim hech vaqt Xudo ta'olaga yetishmaydi".

Uchinchi shart: “Xudo ta’olo xalqiga qo’ldan kelgancha mehribonlik ko’rsatish va ozor yetkazmaslik”. Alloma uqtiradiki, shogird qo’ldan kelganicha xalqqa yaxshilik qilishi, xalqparvar bo’lishi, boshqalarga yordam berishi, hech kimga ozor yetkazmasligi kerak.

Beshinchi shart: “O’zini hech bir kishidan yaxshiroq deb bilmaslik”. Bunda shogirdning mavjud narsa borki, undan o’zini past tutishi, ya’ni kamtar bo’lishiga ishora etilgan.

Yettinchi shart: “Iloji boricha il ahli bilan o’tirish, dunyoning moli va obro’idan hazar qilish, toki unga aldanib qolmaslik kerakki, dunyo—g’addor sehgardir”.

O’ninchi shart: “Barcha narsaning asosi—bu piri komildir. U nima desa, darhol aytganini qilishi, uning huzurida boadab bo’lishi lozim. Bilishi lozimki, pir uning holatini ko’rib turuvchi va bilib turuvchidir”. Mazkur shartda bayon qilinishicha, shogird uchun pir, ustoz ulug’dir. Shogird ustoz o’gitlarini bajarishi, unga amal qilishi, uning huzurida odob saqlashi lozim.

Rahnamo bo’la oladigan, pirlilik (shayxlik) shart-sharoiti va ruknlari (asoslarini)ni yaxshi biladigan odamni pir deb tanlash lozim. Pir shogirdining tariqat bo’yicha har turli savollariga, qiyinchiliklariga javob berishi, uning mushkulini osonlashtirishi kerak bo’ladi. Ustoz o’z so’zida turadigan va tariqat qoidalarini saqlashda sobit qadam, shogird tarbiyasini maromida olib boradigan inson bo’lishi lozim. O’z navbatida saxiy, shogirdga har tomonlama moddiy va ma’naviy yordam bera oladigan, so’zida qat’iy turadigan shaxs bo’lishi kerak. Ustozlik qiladigan pir pok, hayoli, diyonatli, oliyhimmat va ta’magirlik illatlaridan holi bo’lmog’i darkor. Eng muhimi mohir murabbiy bo’lib, muridni tarbiyalay olsin. “Murid” so’zining ma’nosi istovchi, xohlovchi degan ma’nolarni beradi. Chunonchi, botinida xohish bo’lmasa, zohirda hech bi ramal ko’zga tashlanmagan.

Koshifiyning fikricha, shogird ilm egallashga kirishdimi, o’z ustozining so’zidan chiqmasligi va aytganlariga qattiq amal qilishi kerak. Aks holda shogird o’z maqsadiga yetolmaydi. “Avvalgi zamonlarda ilm toliblari,—deydi olim o’z shogirdlariga,—ilm o’rganishda ixtiyorlarini ustozlarining qo’llariga topshirar edilar va murod-u maqsadlariga yetar edilar. Hozirda esa o’z ixtiyorlaricha ish tutadilar, natijada ilm-u fan va fiqh borasida o’z maqsadlariga yetolmaydilar”. Ulug’ olimning bu fikrini hozirgi kunda ham to’g’ridan-to’g’ri qabul qilish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagoglik kasbi jamiyatda katta ahamiyatga ega. Pedagoglik kasbini ustoz shogird an’analari bilan bog’lash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.I.Olimova. “O’qituvchilarni pedagogic kasb faoliyatiga tayyorlashning pedagogic-psixologik asoslari”.
2. X.Ibragimov, M.Quronov. Umumiy pedagogika (darslik). Toshkent. 2022.
3. www.ziyo.net.
4. Wikipedia.